



RECOVERY OF SOCIO-ECONOMIC LIFE IN KASHKADARYA REGION IN THE FIRST YEARS AFTER THE SECOND WORLD WAR

Elyorjon Z. Karimov

Doctoral student

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: elyorjonkarimov45@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: reconversion, industry, agriculture, cotton growing, grain growing, cattle breeding, Kashkadarya workers, irrigation canals.

Received: 10.06.23

Accepted: 12.06.23

Published: 14.06.23

Abstract: In this article, from the second half of the 40s of the 20th century, the transition of the social and economic life of the peoples of the former Soviet Union to the path of peaceful construction, and the problems and difficulties, positive and negative aspects of it, were tried to be shown on the example of the Kashkadarya region. In addition, the principles of critical analysis and impartiality were followed in evaluating this process.

IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI DASTLABKI YILLARDA QASHQADARYO VILOYATIDA IJTIMOY-IQTISODIY HAYOTNING TIKLANIB BORISHI

Elyorjon Z. Karimov

Doktorant

O'zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: elyorjonkarimov45@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: rekonversiya, sanoat, qishloq xo'jaligi, paxtachilik, g'allachilik, chorvachilik, Qashqadaryo mehnatkashlari, sug'orish kanallari.

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asr 40-yillari ikkinchi yarmidan boshlab, sobiq Sovet Ittifoqi xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayotining tinch qurilish yo'liga o'tkazilib borilishi va undagi muammo va qiyinchiliklar, ijobiy va salbiy jihatlari Qashqadaryo viloyati misolida ko'rsatib o'tishga harakat qilingan. Bundan tashqari mazkur jarayonga baho berishda tanqidiy tahlil va xolislik tamoyillariga amal qilindi.

ВОССТАНОВЛЕНИЕ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В ПЕРВЫЕ ГОДЫ ПОСЛЕ ВЕЛИКОЙ ОТЕЧЕСТВЕННОЙ ВОЙНЫ

Эльёржон З. Каримов

докторант

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

Электронная почта: elyorjonkarimov45@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: реконверсия, промышленность, сельское хозяйство, хлопководство, зерноводство, скотоводство, кашкадаргинские рабочие, оросительные каналы.

Аннотация: В данной статье со второй половины 40-х годов 20 века рассматривается переход социально-экономической жизни народов бывшего Советского Союза на путь мирного строительства, а также проблемы и трудности, положительные и отрицательные стороны этого, пытались показать на примере Кашкадаргинской области. Кроме того, при оценке этого процесса соблюдались принципы критического анализа и беспристрастности.

KIRISH

Tarixdan ma'lumki, insoniyat o'zining million yillik tarixida nihoyatda ko'plab qirg'inbarot urushlarni boshidan kechirgan. Mana shu urushlarning eng daxshatlisi va talafotlarga boy bo'lgani Ikkinci jahon urushi hisoblanadi. Qariyb 6 yil davom etgan (1939–1945-yillarda) bu urushning insoniyatga keltirgan zarari umumiyligi hisobda 4 trillion dollarni tashkil etdi. Bu urushdan ko'rilgan eng ko'p zarar Sovet Ittifoqi zimmasiga to'g'ri keladi. Jumladan, Ittifoq tarkibida bo'lgan O'zbekiston SSR ham bevosita bo'lmasa-da, bilvosita Ikkinci jahon urushining faol ishtirokchisiga aylandi. Ya'ni mamlakatimiz va uning viloyatlari urush yillarida va undan keyin ham Ittifoqning front uchun asosiy mahsulot yetkazib beruvchi bazasiga aylanganini ko'rishimiz mumkin.

ASOSIY QISM

Butun Ittifoqda bo'lgani singari O'zbekistonda ham urush yakunlanishi bilanoq tinch qurilish sari jadallik bilan harakat boshlandi. Xususan, Sovet Ittifoqi respublikalarida tezlik bilan vayron bo'lgan sanoat korxonalarini, zavod-fabrikalarni, shahar va qishloqlarni rekaversiya qilish boshlab yuborildi. Ikkinci jahon urushidan oldin bo'lgani singari urushdan keyin ham mamlakat iqtisodiyoti va xalq xo'jalik hayotini tiklash uchun besh yillik rejalar qabul qilina boshlandi. Xususan, 1946-yilning dastlabki kunlaridanoq “1946–1950 yillar mobaynida xalq xo'jaligini tiklash va rivojlantirishning stalincha programmasi” ga ega bo'ldi. Bu besh yillik reja butun Ittifoqda joriy qilindi, shu jumladan, O'zbekistonda ham. Bunga asosan Respublika

viloyatlari, xususan, Qashqadaryoda viloyati mehnatkashlarining oldiga ham aniq ishlab chiqilgan vazifalar qo'yildi. 1946-yil 19-sentyabrda VKP(b) MK va SSSR Ministrlar Sovetining kichik kolxozlarni birlashtirish to'g'risidagi qaroriga asosan Qashqadaryo viloyatida ham bir qator xo'jaliklar birlashtirib yuborildi.

Urushdan keyingi xo'jalik hayotini tiklash qiyinchiliklari va 1946-yilgi qurg'oqchilik va hosilsizlik tufayli g'alla, paxta yetishtirish belgilangan reja bo'yicha bajarilmadi. Xususan, Qashqadaryo viloyatining paxtakorlari respublika respublika paxtakorlarining uchinchi qurultoyida stalincha besh yillik rejani amalda ortig'i bilan bajarish uchun har gektar yerdan olinadigan paxta hosilini rejadagi 14,5 sentner o'rniga 16 sentnerga yetkazish majburiyatini olgan edilar. Lekin yuqorida ko'rsatib o'tilgan obyektiv va subyektiv sabablar tufayli mazkur reja bajarilmay qoldi. Bu esa sovet rahbariyati tomonidan "Qashqadaryoda sustkashlik" deya baholandi. Hattoki oilasini yegulik mahsulotlari bilan ta'minlay olmagan xonodon vakillari Qashqadaryoni tark etib ketish holatlari ham uchrab turdi.

1946-yilning fevral oyidayoq "1946–1953-yillar mobaynida O'zbekistonda paxtachilikni tiklash va yanada rivojlantirish rejasi hamda choralar to'g'risida" SSSR Xalq Komissarlar Sovetining qarori e'lon qilindi. Bu qaror sovet davlatining xalqqa qilayotgan "stalincha g'amxo'rliги" ning yaqqol dalili deya talqin qilindi.

O'zbekiston SSR Sovet Ittifoqining asosiy paxtachilik manbayi hisoblanib, 1938-yidayoq Ittifoq bo'yicha yetishtirilgan barcha paxtaning 60 foizini yetkazib bergen edi. Keyingi yillarda ham paxtachilik sohasida roli yanada oshib bordi. Sovet hukumati bu bilan ham qanoatlanmasdan O'zbekistonda bu ko'rsatkichdan ham bir necha barobar ko'proq paxta yetishtirish rejasini ishlab chiqdi. SSSR Xalq Komisarlar Sovetining mazkur reja bo'yicha chiqarilgan qarorida O'zbekistonda paxta yetishtirishni qat'iy ravishda kengaytirish uchun kurashning keng dasturi belgilab berildi. 1946–1953-yillar mobaynida O'zbekistonda paxta maydonalari 200 ming gektarga kengaytilishi, hosil esa 1946-yilda 15 sentnerdan 1953-yilda 25 sentnerga, davlatga topshiriladigan paxta 1 mln 160 ming tonnadan 2 mln 400 ming tonnaga yetkazilishi kerak edi. Ya'ni boshqacha qilib aytganda respublika 8 yil davomida Ittifoqqa topshiriladigan paxta salmog'ini ikki barobar ko'paytirib berishi belgilandi. Bu narsa xalqqa quyidagicha tushuntirib, izohlab berildi: "Paxtani ikki baravar oshirish – xalq iste'moli mahsulotlarini ikki baravar oshirib, aholi turmush sharoiti darajasini ikki baravar oshirish demakdir".

1947-yilda yog'ingarchilik oldingi yillarga nisabtan ko'p bo'lganligi hisobidan g'alla rejasi bajarilib, ortgan qismi kolxozchilarga taqsimlab ham berildi. Natijada 1948-yilga kelib qishloq xo'jaligi aholisining don mahsulotlariga bo'lgan talabi qondirildi. Xususan, Qashqadaryo

viloyatining asosiy “qon tomiri” – sug‘orish tarmog‘i hisoblangan Qashqadaryo daryosining suv omborlarida to‘plangan suvlar hisobiga viloyatning olis tumanlari – Beshkent, Koson, Kasbi tumanlarigacha suv yetib, hosilning bir necha baravar yaxshi bo‘lishiga olib keldi.

Paxta yetishtirish yuzasidan sovet hukumati tomonidan belgilangan rejaning bajarilishi to‘qimachilik sanoatini rivojlantirish bilan birga mamlakatda gazlama ishlab chiqarishni oshirishga, qo‘srimcha ish o‘rinlarining oshirilishiga zamin yaratadi, deyildi sovet hukumati qarorida. 1947-yildayoq O‘zbekiston Ittifoqqa 1946-yilga qaraganda 300 ming tonna ko‘p paxta topshirishi belgilandi va O‘zbekiston paxtakorlarining vatanparvarligi, sovet davlatining ularga ko‘rsatayotgan yordami bunga garov deya keltirildi.

Jumladan, 1948-yildayoq Qashqadaryo viloyatida chigit ekish rejasi 3000 gektarga ko‘paytirilib, jami 25 ming gektarga yetkazildi va viloyat paxtakorlari davlatga 50000 tonna topshirishga muvaffaq bo‘ldilar. Shu yilning o‘zidayoq Qashqadaryo viloyati chorvachilik mahsulotlari yetishtirish bo‘yicha respublikada 2-o‘ringa chiqib oldi. Bungacha bo‘lgan muddatda, ya’ni “Qizil O‘zbekiston” gazetasida quyidagi mazmunda xabar berilgan edi: “Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanida chorvachilik uchun zarur bo‘lgan beda ekish sust borayotir. Tumanda 1946-yilda 1370 gektarga beda ekilishi kerak edi. Tumanning Guliston, Voroshilov, Oxunboboyev nomli va o‘nlab kolxozlar beda ekishga shu vaqtgacha kirishmaganlar. Beda ekish viloyatning Shahrисabz, Yakkabog‘, Qarshi va boshqa tumanlarida ham sudralmoqda. Shuning uchun viloyatda 8700 gektar beda ekish rejasining atigi 1720 gektari bajarildi.

Davlat rejasidan ortib qolgan mahsulotlarni shahar bozorlarida sotish yuzasidan kerakli tadbirlar mukammal olib borilmadi. Masalan, 1950-yil Qashqadaryo viloyati qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini shahar bozorlarida sotish rejasi 86 foizga bajarildi. O‘zbekiston bo‘yicha esa bu reja 68 foizni tashkil etdi.

Urushdan keyingi yillarda Qashqadaryo viloyatining tuman markazlarini viloyat markazi va boshqa tumanlar markazlari bilan bog‘lovchi asphalt yotqizilmaganligi oqibatida qishloqlarning ahvoli achinarli holda edi. Shu sababli ham Qashqadaryo viloyat partiya va ijroiya qo‘mitasi tumanlar rahbariyatlari oldiga yo‘llar qurilishi bilan muntazam shug‘ullanish qo‘yib bajarilishini nazorat qilib borildi. Qashqadaryoning barcha tumunlarida yo‘llar qurilishi hashar yo‘li bilan amalga oshirib borildi. Masalan: 1948-yilda G‘uzor qishloq sovetidagi 15 km yo‘lni, 37 kilometrlik G‘uzor–Yangikent, 20 kilometrlik G‘uzor–Qo‘shtepa yo‘lini, 26 kilometrlik G‘uzor–Pachkamar yo‘llarini ta’mirlashga hashar yo‘li bilan odamlar safarbar etildi. Ma’lumot o‘rnida eslatib o‘tish kerakki, o‘sha vaqtda barcha yo‘llarni asfalt qilishni iloji bo‘lmagani uchun yo‘llar har yili odamlarning qo‘l kuchi bilan tekisalib, tuproq to‘kilar edi. Natijada bu tuproq

yo'llar yog'ingarchilik paytlarida loyga aylanib mashinalar va odamlarning harakatlanishini qiyinlashtirib, turli xil muammolarni keltirib chiqarardi.

1948-yilda Qashqadaryoda jami 11535 ta suv inshooti mavjud bo'lib, ulardan 153 tasi yangidan qurib bitkazildi. 1949–1950-yillarda O'zbekiston hukumati Qashqadaryo qishloqlaridagi kolxoz va sovxozlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash borasida bir qator tadbirlarni ham amalga oshirdi. 278 ta traktor, 135 ta seyalka, 102 ta g'alla o'rish kombaynlarini yetkazib berdi. Qishloq xo'jaligida qo'l mehnatini mashina mehnati bilan almashtirish ishiga e'tiborni kuchaytirish natijasida 1950-yilda 38 ming hektar yerga paxta chigiti ekilib, 68504 tonna paxta hosili olindi.

1952-yilda Qashqadaryoda 19 ta MTS (mashina traktor stansiyasi) mavjud bo'lib, ularda 2360 ta traktor, 398 ta g'alla o'rish kombayni, 198 ta paxta terish mashinalari qishloq aholisining yetishtirgan mahsulotlarini yig'ib olishga ko'maklashdi. Qashqadaryoda barcha shudgor qilingan yerlarning 91 foizi, ekin ekilgan yerlarning 78 foizi, paxta chigiti ekilgan yerlarning 100 foizi, g'alla o'rishning 69 foizi texnika yordamida bajarildi.

Markaz hukumatga zarur bo'lgan paxta xomashyosini O'zbekiston hududida ishlab chiqarish uchun yangi bo'z yerlarni o'zlashtirish rejasi mavjud bo'lib, buni amalga oshirish mintaqalaridan biri sifatida Qashqadaryo viloyati bo'lishini inobatga olib, yangi suv xo'jalik qurilishlarini bunyod etishga tayyorgarlik ko'rildi. 1951-yilda Eski anhor kanalini qurish va Qashqadaryoda yangi yerlarni o'zlashtirib, paxta yetishtirish loyihasini ishlab chiqish topshirig'i "Среднеазиатский Оазис Гипровод хлопок" instituti jamoasiga topshirildi. Ushbu loyiha 1952-yilda tayyorlandi va unga muvofiq Zarafshon daryosining darg'om kanali "Xishrov" GESining quyi qismidan boshlanib, Qashqadaryo daryosiga, Qarshi shahri yoniga kelib qo'shilishi loyihalashtirilgan edi. Kanalning uzunligi 184 kilometrni tashkil etgan. Ushbu kanal qadimgi Eski anhor kanalining o'zani bo'yicha qazilishi ko'zda tutildi. Kanaldan sekundiga 50 kubometr suv oqib, 40 ming hektar yerni sug'orishi rejalashtirilgan edi.

So'ngra 1953-yilning 15-dekabrida O'zbekiston KP MQ va O'zbekiston SSR Ministrler Soveti "Eski anhor kanali qurilishi to'g'risi"da qaror qabul qildi. Qarorda Samarqand viloyati hududidagi 40 ming hektar yerni, Qashqadaryo viloyati hududidagi 100 ming hektar yerni suv bilan ta'minlab, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiradigan mintaqaga aylantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati ko'rsatib o'tildi. Kanal qurulishi 1954-yil fevral oyidan boshandi. Uni bunyod etish hashar yo'li bilan amalga oshirildi. Kanalni qazish ishlariga Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari aholisi safarbar etildi. Ushbu kanalni bunyod etishda qashqadaryolik 15 ming nafar yoshlar fidokorona mehnat qildilar. Ularni qo'llab-quvvatlab turish va kerak mahsulotlar bilan ta'minlab turishga kolxozlar va sovxoziylar bosh-qosh bo'ldilar.

1954-yilning ikkinchi choragida kanal qurilishiga qo'shimcha ravishda 16 ta ekskavator, 30 ta skeper, 60 ta Zil, 5 ta suv sepadigan mashina, 30 ta C-80 markali buldozer, 13 ta yuk avtomashinasi ajratildi. Qashqadaryo viloyati rahbariyati kanal qurilishini muddatidan oldin tugallab, Qashqadaryoga Zarafshon daryosi suvini olib kelish uchun qo'shimcha tadbirlar qabul qildi. Viloyatdagi MTSlardan 100 nafar traktorchilar, "Средоазисгидрострой" trestidan 20 ta ekskavatorchilar, 106 ta machinist ekskavatorchi kanal qurilishi uchun jaib etildi. Quruvchilarning fidokorona mehnatlari, qiyinchiliklarni mardonavor yengib o'tish uchun harakat qilishi o'z natijasini ko'rsatdi: 1955-yil 28-avgustda Eski anhor kanali ishga tushirildi. Zarafshon daryosining suvi Qashqadaryo viloyatining cho'l hududlarini obod qilish uchun olib kelindi. Natijada Qashqadaryo viloyati 1952-yilda davlatga 108 ming tonna paxta topshirgan bo'lsa, 1956-yilda bu ko'rsatkich 116,5 ming tonna tomonga yetdi.

1957-yildan boshlab Qashqadaryoda shahar va qishloqlar aholisi hayotini yaxshilashga qaratilgan bir qator chora tadbirlar amalga oshirila boshkandi. Ya'ni mazkur yildan boshab viloyatdagi 10 ta shahar markazining 9 tasi Qarshi shahri bilan asfalt yo'llar orqali bog'landi. Yangitdan Yakkabog'-Chiroqchi yo'li qurilib ishga tushirildi. Qarshi-Koson yo'li qurilishi davom ettirildi. Qarshi-Samarqand va Qarshi-G'uzor avtomobil magistral yo'llari kapital ta'mirdan chiqarildi. Viloyatdagi 16 ta qishloqda aloqa korxonalari tashkil etildi. 14 ta qishloq soveti, 53 ta kolxoz, 2 ta sovxozi telefonlashtirildi. Viloyatning Qarshi va Shahrisabz yangidan telefon stansiyalari ishga tushirildi. Qashqadaryo viloyatini Toshkent shahri bilan bog'lovchi shaharlararo telefon aloqasi yo'lga qo'yildi. Bundan tashqari, 1956-yilda 4200 kvadrat metr uy-joy qurib foydalanishga topshirilgan bo'lsa, 1957-yilda 10 ming kvadrat metr uy-joy qurilib, foydalanishga topshirildi.

XULOSA

Xulosa o'mnida aytib o'tish kerakki, sovet davlati Ikkinci jahon urushidagi erishgan g'alabasi juda katta yo'qotishlar va qurbanlar evaziga qo'lga kiritgan bo'lsa-da, urushdan keyingi dastlabki yillardan xalq xo'jaligini tiklash va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun besh yillik rejalar asosida zo'r berib ishlar olib borildi. Ko'p hollarda mazkur ishlar ma'muriy buyruqbozlik yo'li bilan ya'ni sovet xalqlari dohiysi bo'lgan Stalin oldida "yuzini yorug' qilish" uchun jadallashtirildi. Maqolada keltirib o'tilgan ma'lumotlar shuni ko'rsadiki, sanoat, qishloq xo'jaligi, aholi turmush sharoitini yaxshilash ma'lum bir darajada rivojlangan bo'lsa-da, bular butun respublika, xususan, Qashqadaryo viloyati aholisining juda qattiq mehnatlari hisobiga amalga oshirildi. Urush fronti tugagan bo'lsa, endi yangidan haqiqiy mehnat frontlari ochilgan edi. Shu bilan birga, sovet hukumatining uzoqni o'ylamasdan tezlik bilan chiqargan turli xil qarorlari aks ta'sirlarga ega ham bo'ldi, yerlarning meliorativ holati

yomonlashishiga olib keldi. Viloyat aholisining turmush sharoitida ham jiddiy muammolarni keltirib chiqardi. Zo‘rma-zo‘rakilik va ma’muriy buyruqbozlik bilan qilinadigan ishlar salbiy oqibatlarga olib kelishi Sovet Ittifoqining XX asrning 80-90 yillardagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy holatidan ham korish mumkin bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “Qizil O‘zbekiston”, 1946-yil 3-aprel. 68-son.
2. O‘zRPDAQVF. 1-jamg‘arma, 2-ro‘yxat, 4-ish, 10-varoq.
3. “Qizil O‘zbekiston”, 1946-yil 31-mart. 66-son.
4. “Qizil O‘zbekiston”, 1946-yil 6-fevral. 27-son.
5. Quvvatova N.Q. XX asrning 20–80 yillarda O‘zbekiston qishloqlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti. Tarix fanlari nomzodi diss. avtoreferati. – Toshkent, 2010-yil.
6. “Правда”, 1946-yil 4-fevral.
7. O‘zMA, 1-fond, 1-ro‘yxat, 8-yig‘ma jild, 40-varoq.
8. O‘zRPDAQVF. 1-jamg‘arma, 2-ro‘yxat, 4-ish, 5-varoq.
9. O‘zMA, 837-fond, 33-ro‘yxat, 8743-yig‘ma jild, 16-varoq.
10. O‘zRPDAQVF. 1-jamg‘arma, 2-ro‘yxat, 154-ish, 28-varoq.
11. Abdullayev K., Muzaffarov B. Эски ангарские канал первое крупное ирригационной сооружения Кашкадаръи. Qarshi davlat pedagogika institutining Ijtimoiy fanlar kafedrasi to‘plami. Qarshi: 1970. 146-bet.
12. O‘zRPDAQVF. 1-jamg‘arma, 2-ro‘yxat, 247-ish, 22-varoq.